

**NOQONUNIY MIGRATSIYA VA UNING YEVROPA
XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI**

Maxsudov Sherdil

JIDU Talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada noqonuniy migratsiyaning Yevropa miqyosida kengayishi va uning ortidan keliib chiqaётган ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy oqibatlar tahlil қилинган.

Kalit so'zlar: Migratsiya, demografik qarish, integratsiya, jinoyat, xavfsizlik, terakt.

ANNOTATION: This article provides an in-depth analysis of the expansion of irregular and illegal migration across Europe and examines the economic, political, and social consequences it brings.

Keywords: Migration, demographic aging, integration, crime, security, terrorist attack.

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится анализ расширения нерегулярной и незаконной миграции в Европе и рассматриваются экономические, политические и социальные последствия, которые она вызывает.

Ключевые слова: миграция, демографическое старение, интеграция, преступность, безопасность, террористическая атака.

KIRISH

Yillar davomida noqonuniy migrantlarning Yevropa qit'asiga yirik raqamlarda kirib kelish jarayoni kuzatilmoqda. Dunyoning turli burchaklaridagi beqaror geosiyosiy holat, og'ir iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat turli mamlakat fuqarolarini ko'hna qit'a chegaralarini buzib kirishga va u yerda o'z omadlarini sinab ko'rishga undamoqda. Noqonuniy migratsiyaga qarshi qaratilgan qonunlar va ta'qiqlarga qaramay, bu mavzu mintaqqa uchun xavfsizlik masalalarini kun tartibiga olib chiqdi. Ushbu maqolada noqonuniy migratsiya oqimi tufayli yuzaga kelayotgan ba'zi salbiy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy oqibatlarni Yevropa misolida ko'rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

Noqonuniy migratsiya jarayoniga iqtisodiy hodisa sifatida baho bersak, birinchi navbatda, migrantlar faoliyati ko'pchilik aholi ishlashni istamaydigan, yoki murakkab va ish imkoniyati cheklangan sohalarda ko'proq ko'zga tashlanadi. Ikkinchi tomondan, migrantlar mehnatiga odatdagidan kamroq haq to'lanishi ko'plab ish beruvchilarni migrantlar mehnatidan imkon qadar ko'proq foydalanishga undaydi.

Hozirgi kunda noqonuniy migratsiya eng avj olgan hudud sifatida Yevropa qit'asi ko'rildi. Osiyo va Afrika hududlaridan kelgan ulkan raqamlardagi migrantlar oqimi Yevropa uchun eng o'g'riqli muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Garchi migrantlar Yevropa rasmiylari uchun muammolarni keltirib chiqarsada, mansabdorlar Yevropaga kirib keluvchi mavsumiy va doimiy ishchilarga ta'qiq o'rnata olmaydi. Ishga yaroqli aholi qatlaming doimiy ravishda qisqarib borishi sharoitida, sanoat drayverlarining harakatlantiruvchi kuchi sifatida migrantlar ko'rildi. Biroq, migrantlarning axloqiy, madaniy va ijtimoiy normalari Yevropa xalqlari orasida tushunmovchiliklar, madaniy bo'shliqlar va ba'zi hollarda nizo va adovat kayfiyati shakllanishiga olib kelmoqda. Statistikalarga yuzlansak, 2023-yilda Yevropa hududiga 385,000 migrantlar kirib kelgan va bu 2020-yilgi pandemiya davridagiga nisbatan 3 baravar ko'pdir. So'nngi o'n yillikda esa bu ko'rsatkich 29 million kishini tashkil etadi. Achinarli tomoni esa, xavfsizlik choralar ko'rilmaganligi sababli 2023-yilda 3,000 migrant O'rtayer dengizini kesib o'tish paytida halokatga uchrab, vafot etgan.¹

Ma'lumot uchun, 2020-yildagi statistikalar Yevropada 87 million migrant istiqomat qilganini, bu esa, 2015-yildagi raqamlarga nisbatan 16 foizga ko'pdir.

Yana bir boshqa masala, bu-Yevropada demografik qarish. Statistik farazlarga ko'ra, 2060-yilga borib, Yevropada katta yoshdagi har ikkita odamdan bittasi ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatadi. Hozirda esa bu ko'rsatkich har to'rtta odamga bir kishini tashkil qiladi. Bu kabi nozik sharoitda, Yevropa rahbariyati migrantlar oqimini tartibga solishning mukammal huquqiy va amaliy asoslarini yaratmasalar, bu omil migrantlar sonining Yevropa miqyosida kamayishiga, shuningdek, ishchi kuchi va mutaxassislar yetishmovchiligiga sabab bo'lishi mumkin. Masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, migrantlar sonini qisqartirishga urinish sanoat markazlarida cho'kishlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajimining tushib ketishiga olib keladi. Agarda, mas'ul tashkilotlar migrantlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratmasa, noqonuniy migratsiya omili aholi orasida irqchilik va ksenofobiyaning yanada kengroq tarqalishiga asos bo'lib xizmat qiladi.²

Shuningdek, migrantlarning Yevropa jamiyatiga axloqiy va madaniy integratsiyasi ham juda murakkab, buning ta'sirida esa ko'plab migrantlar uchun Yevropa ijtimoiy normalari va qonunlariga moslashish juda og'ir va murakkab kechmoqda. Shvetsiya sobiq bosh vaziri Magdalena Anderssonning ta'kidlashicha, zo'ravonlikning mamlakat miqyosida ortib borishi, chet elda tug'ilgan mamlakat fuqarolarining shved jamiyatiga integratsiyasi mavaffaqiyatsiz tugashi bilan bog'liq. Ma'lumot uchun, ularning Shvetsiya aholisining 20 foizni tashkil qiladi va bu raqam so'nngi yigirma yil ichida 2 millionga ko'paygan. Shvetsiya Milliy xavfsizlik xizmatining rahbari, Linda Staafning 2019-yilda BBCga bergen intervyusiga ko'ra, ko'plab jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy kelib chiqishi

o'xshashligi ta'kidlanadi. Ya'ni ular Shvetsiyaga ko'chib kelgan migrantlarning ikkinchi yokiuchinchi avlodlari bo'lib, qoloq oilalarda tarbiya olishgan. 2020-yilda, Shvetsiyalik jamiyatshunos professor Goran Adamson tomonidan amalga oshirilgan izlanishda ta'kidlanishicha, 2002-2007-yillar oralig'ida jinoyat amalga oshirgan shaxslarning 58 foizini migrantlar tashkil qiladi.³ Bu kabi holatlarni nafaqat Yevropa, balki butun dunyo bo'ylab oldini olish uchun, birinchi navbatda migrantlarning huquqiy ongini kuchaytirish zarur. Migrantlarning muayyan mamlakatlarga tashrif buyurishlari davomida ularga intensiv ravishda o'sha mamlakat qonunlari, diniy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari to'g'risida bilim berishni tashkillashhtirish darkor.

Noqonuniy migrantlarning Yevropa qit'asida bo'lib turishi esa alohida masala. 2022-yilda 1.8 million atrofidagi kishi Yevropa hududida noqonuniy ravishda istiqomat qilib kelayotgani aniqlangan, bu esa 2021-yilgi statistikaga nisbatan 59 foizga ko'proq demakdir. Eng yuqori ko'rsatkich 222,520 kishi bilan Vengriyada kuzatilgan, keying o'rirlarni esa, Germaniya va Italiya kabi mamlakatlar egallaydi. Yevropa hududida noqonuniy yashash bo'yicha eng ko'p holatlar Suriyadan kelgan noqonuniy migrantlar orasida kuzatilib, 175,960 nafar kishini tashkil qilgan, Afg'oniston va Marokash fuqarolari esa Suriyadan keying o'rirlarni qayd etishgan.⁴

Shunday sharoitda Yevropa rasmiylari ijtimoiy to'lovlarni kamaytirish va ish sharoitlarini yaxshilash orqali o'z mehnat bozorlarini migrantlar uchun moslashtirishga harakat qilmoqdalar. Ammo ularning bu harakatlari kuchli ijtimoiy noroziliklarga sabab bo'lmoqda.

Yana bir muhim ma'lumot, 2015-yil 13-noyabr kuni Parijda sodir etilgan, 130 kishining o'limiga va 350 kishining jarohatlanishiga sabab bo'lgan teraktni ham migrant sifatida Yevropa hududiga kirgan ISHID va Al-Qaida terroristik guruhlari a'zolari sodir etgan. Yana bir keys, 2016-yilda Belgiya poytaxti Bryussel shahrida kuzatilgan. Dastlab, Bryussel shahri hududidagi aeroportda 2ta portlash ro'y bergan, so'ng, uchinchi portlash metro bekti hududida sodir etilgan. Har ikkala teraktda 32 kishi hayotdan ko'z yumgan va terroristik xuruj uchun javobgarlikni "Islom Davlati" terrorchilik tashkiloti a'zolari o'z zimmalariga olgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytishim mumkinki, Yevropa rasmiylari qit'ada migratsiya masalalarini hal qilish uchun yakdil va uzoqni ko'zlagan chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari lozim. Birinchi navbatda, migrantlarni kasbga o'qitishni tashkil qilish va ularni mahalliy aholiga integratsiyasi jarayoniga ko'maklashish. Masalan, 2015-yilda Germaniyada tashkil qilingan "Integratsiya kurslari" ijtimoiy moslashuv masalasini yumshatishga xizmat qilgan. Yana bir tavsiya shuki, Yevropa chegaralari atrofida nazoratni kuchaytirish va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashni jadallashtirish. Qo'shimcha tarzda, Yevropa mamlakatlari

migratsiya oqimini nazorat qilishga intilishi va migrantlar keladigan mamlakatlar bilan ushbu sohada ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish kerak. Bunday dasturlardan biri, "Afrika Ittifoqi bilan hamkorlik dasturi" bo'lib, u Afrika mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishini qo'llab quvvatlash barobarida hududda yangi ish o'rinlarini ochishga asoslanadi va bu orqali migratsiya hajmini kamaytirishni maqsad qilinadi. Yuqorida keltirib o'tilgan yechimlar vositasida Yevropa noqonuniy migratsiyadan keladigan xavf-xatarni kamaytira olishi mumkin, deya ishoniladi.

REFERENCES:

1. Robinson A. (2024, May 31). "Europe's Migration Dilemma", Council on Foreign Relations. <https://www.cfr.org/article/europe-s-migration-dilemma>
2. Without migrants, Europe's economic and social model is in danger, says the EESC (2018, December 11) "European Economic and Social Committee." <https://www.eesc.europa.eu/en/news-media/press-releases/without-migrants-europe-s-economic-and-social-model-danger-says-eesc>
3. John R.& James V. "Europe shows a clear link between immigration and crime." RealClearInvestigations. (2022, December 1) https://www.realclearinvestigations.com/articles/2022/12/01/europe_shows_a_clear_link_between_immigration_and_crime_-like_the_one_the_us_seriously_downplays_867625.html
4. Anonymous. (2023, May 5) "Immigration law enforcement in the EU: 2022 figures". Eurostat. <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/DDN-20230505-2>